

INGLIZ TILI O'QITISHDA LINGVISTIK KOMPETENSIYA ATAMASINING TAVSIFI

Olimova Matluba Ravshanbek qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

Xorijiy filologiya kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17196862>

Annotasiya. Ushbu maqolada ingliz tili o'qitish jarayonida "lingvistik kompetensiya" atamasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari va o'quvchilarda shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Til o'qitishda lingvistik kompetensiyaning ahamiyati, uni boshqa kompetensiyalar bilan uzviy bog'liqligi va nazariy asoslari yoritiladi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar asarlariga tayangan holda lingvistik kompetensiya atamasining pedagogik va metodik talqini ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: lingvistik kompetensiya, ingliz tili, til o'qitish, nazariy asos, kommunikativ kompetensiya, metodika, til birliklari.

Kirish. Hozirgi globallashtirish sharoitida ingliz tilini samarali o'qitish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Til o'qitishda asosiy vazifalardan biri o'quvchilarda til bilimlarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish, ya'ni lingvistik kompetensiyaning shakllantirishdan iboratdir. Lingvistik kompetensiya tushunchasi ilk bor N. Xomsky tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, keyinchalik D. Hymes va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirildi. Bu atama o'quvchilarni nafaqat grammatik bilimlarga, balki lug'aviy, fonetik va nutqiy ko'nikmalarga ega bo'lishga undaydi. Shu sababli, uning nazariy asoslarini aniqlash hamda ta'lim jarayonida qo'llash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharxi. N. Xomsky (1965) lingvistik kompetensiyaning shaxsning til qoidalarini ichki ravishda egallashi sifatida ta'riflagan. D. Hymes (1972) esa ushbu tushunchaga "kommunikativ kompetensiya"ni qo'shib, til bilimining ijtimoiy vaziyatlarda qo'llanishini ham o'rganish zarurligini ta'kidlagan. CEFR (2001) hujjatida lingvistik kompetensiya til o'qitishning asosiy komponenti sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, Richards va Rodgers (2014) metodik yondashuvlarda lingvistik kompetensiyaning grammatik, leksik va fonetik jihatlarini tizimli o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi. Mahalliy tadqiqotchilardan A. Mahmudov (2012), N. Shin (2018) va M. Xojieva (2020) asarlarida ham ingliz tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

Muhokama va natijalar. "Kompetensiya", "Kompetentlilik" atamalarining farqini aniqlash, tillarni o'qitish nazariyasi esa, "Kommunikativ kompetensiya" negizida (Dell Hymes) til kompetensiyasiga oid tadqiqotlar olib borish bilan shug'ullanilgan. Xususan, D. Xayms orqali xorijiy tillarni o'qitish jarayonida "Kommunikativ kompetensiya" yaratildi. Uning fikricha, bu jarayon kommunikativ faoliyatni ifodalab, asosiy e'tibor o'quvchida kundalik hayotga oid ma'lumotlarni o'z nutqida ifoda qila olish kompetensiyasini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqichda – (1970-90 y.y) birorta xorijiy tilni egallash, boshqaruv, muloqotga o'rgatish jarayonlarida ijtimoiy kompetensiya va shaxsning kompetentlilik vujudga keldi. 1984 yilda Dj.Raven (London) o'zining "Zamonaviy jamiyatda kompetentlilik" mavzusida tadqiqot yuritdi. Shuningdek, u ta'lim turli kompetensiyalarni ishlab chiqdi. Ushbu kompetensiyalardan "tayyorgarlik",

"javobgarlik", "biror narsani qilishga qodir bo'lish", "o'ziga ishonish", "erkin fikrlash", "tanqidiy tafakkur" kabilar yirik planda Dj.Raven izdoshlari yosh olimlarning tadqiqot ob'ektiga

aylandi hamda o'rganildi. Uchinchi bosqichda – Yevropa kengashi tomonidan (1990 yil) stretegik, sosial, sosiolingvistik, til va o'quv-kognitiv kompetensiyalar ishlab chiqildi.

So'ngra Rossiyalik bir qancha tadqiqotchilar (N.V.Kuz'min, A.K.Markova, L.A.Petrovskaya, L.M.Mitino, L.A.Petrovskaya) turlicha kompetensiyalarni amaliyotga tatbiq qilishdi. Shuningdek, kompetensiyali yondashuv asosidagi ta'limning rivojlanishida, YuNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan bir qancha muhim kompetensiyalar o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini belgilab berdi.

Xulosa. Ingliz tili o'qitishda lingvistik kompetensiya atamasining ilmiy-nazariy tavsifi o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotdan kelib chiqadiki, lingvistik kompetensiya o'quvchilarni grammatik, leksik va fonetik bilimlarga ega qilish bilan birga, ularni amaliy nutqda qo'llash malakasini ham shakllantiradi. Shu bois, ingliz tilini o'qitishda bu atamaning mazmunini to'g'ri anglash va uni metodik jihatdan samarali qo'llash zarurdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge, MA: MIT Press.
2. Hymes, D. (1972). *On Communicative Competence*. In: J.B. Pride & J. Holmes (eds.), *Sociolinguistics*. Harmondsworth: Penguin.
3. Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Маҳмудов А. (2012). *Тилшунослик назарияси асослари*. Тошкент: Фан.
6. Шин Н. (2018). *Чет тил ўқитиш методикасида компетенциявий ёндашув*. Тошкент: Ношир.
7. Хожиева М. (2020). “Инглиз тили дарсларида компетенциявий ёндашувнинг самарадорлиги”. *Филология масалалари журналы*, №2, 45–52-бетлар.